



GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT FALSAFASI

Usmonova Sh.Sh

Igamberdiyev D

Andijon davlat pedagogika instituti.

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchilari

Axunjonova Farida

Toirova Muslima

Andijon davlat pedagogika instituti.

Fizika yo'nalishi 102-guruh talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy davrda globallashuv jarayonlarining mohiyati, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlarga ta'siri hamda ularning barqaror taraqqiyot konsepsiyasi bilan o'zaro aloqadorlik jihatlari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda global jarayonlarning antinomiya va paradokslarini falsafiy nuqtayi nazardan sharhlash orqali insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichida paydo bo'layotgan chaqiriqlarga javob izlangan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, madaniy xilma- xillik, ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik, falsafa.

Kirish. Hozirgi davrning muhim jihatlardan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida keng qamrovli globallashuv modernizatsiyalashuv va inovatsion jarayonlar



amalga oshirilayotganligidir. Mazkur o’zaro bog’liq uch hodisa davr taqozosi, do’ektiv zaruriyat. Davr ruhining in’ikosi bo’lgan falsafada bu voqelik xususan, biz so’z yuritmoqchi bo’lgan globallashuv o’z ifodasini topayotgaligi tabiiy. 1990-yillarda globallashuv deb nom olgan bu hodisa jamiyat hayotining turli jabhalarida butun yer sayyorasi uchun yagona bo’lgan tuzilmalar aloqalar va munosabatlarning shakllanishi universiallashtirish jarayonidir. Shuningdek globallashuv global makonning tutashligi yagona jahon xo’jaligi, umumiy ekologik o’zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Globalistika jahon rivojlanishining eng yangi tendentsiyalarini anglab yetish borasidagi ko’p sonli sa’y- harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendentsiyalari va sabablarini ular ta’sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab yetishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi-globalistika paydo bo’lishiga olib keldi. Kengroq ma’noda globalistika atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni jumladan ularning olingan natijalarini shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham xalqaro miqyosda ham iqtisodiy ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo’llaniladi. Shuni ta’kidlash lozimki globalistika odatda ilmiy bilimning tabaqalanishi natijasida yoki turdosh fanlar tutashgan joyda paydo bo’ladigan ayrim fanlar qatoriga kirmaydi. Uning vujudga kelishi zahirida qarama- qarshi jarayonlar-hozirgi zamon faniga xos bo’lgan integratsiyalashuv jarayonlari yotadi. Globalistika tadqiqotlar va bilishning shunday bir jabhasi bu yerda turli fanlar va falsafa asosan bir-biri bilan uzviy aloqada har biri o’z predmeti va metodi nuqtai nazaridan globallashuvning turli jihatlari tahlil qiladi, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o’rganib ularning yechimlarini taklif qiladi. Globalistika mustaqil ilmiy yo’nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida 1960-yillarning oxirlaridan e’tiboran shakllana boshladi, lekin uning paydo bo’lishi uchun obyektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonlariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin. XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoli kasb etdi. Yer kurasi shaklida ekanlogini nazariy va amaliy



jihtadan isbotlab insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdo-sotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdilar va dunyo miqiyosida xalqaro munosabatlarga asos soldilar. Jiddiy migratsiya jarayonlari yuz berdi. Afrikadan Amerikaga qullar ammaviy tarzda tashib keltira boshlandi. XVII asr boshlariga kelib yevropalik savdogarlar ulkan hududlarni o'zlashtirdilar va deyarli butun dunyo bo'ylab joylashdilar. Shu tariqa ular insoniyat tarixida birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar. Shunday qilib XV-XVI asrlarda yuz bergan Buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi. Shu tariqa yangi xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga turli madaniyatlarning o'zaro ta'siriga va G'arbiy Yevropa dengiz davlatlarining o'zlari kashf etgan yer kurrasining turli hududlaridagi ekspansiyasiga asos solindi.

Xulosa. Global jarayonlarning tobora murakkablashuvi va insoniyat oldida turgan ekologik ijtimoiy hamda iqtisodiy muammolarning keskinlashuvi barqaror taraqqiyot falsafasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. XXI asrda taraqqiyot faqat iqtisodiy o'sish bilan emas, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va avlodlar aro mas'uliyatni e'tiborga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi global miqyosda uzviy integratsiyalashgan tizim sifatida shakllanib tabiat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ilmiybaza.uz. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi.
2. Djuraqulov.H. barkamol avlodni tarbiyalash –barqaror taraqqiyot omili sifatida.
3. Davronov,Z, Shermuhamdova N. Qahhorova M, Nurmatova M,Husanov B, Sultonova A. Falsafa –Toshkent:2019
4. Shermuhamedova N.A. Inson falsafasi. Toshkent-2021.